

[8] Ward, Gregory and Betty Birner (2004). 'Information structure and non-canonical syntax'. In Horn and Ward (2004).

[9] Zipf, George Kingsley (1949). Human Behavior and the Principle of Least Effort. Addison- Wesley, Cambridge

[10]https://www.researchgate.net/publication/354471737_Pragmatics_in_Linguistics/download

“HUQUQIY TARG‘IBOT ISHLARI VA HUQUQIY TARBIYA. HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYA TUSHUNCHASI”

Alimova Dilfuza Obidovna

*Buxoro shahar kasb – hunar maktabi huquq fani
o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim tizimidagi jumladan, professional ta’lim tizimida ilg‘or xorijiy tajribalar, pedagogik tizimni integratsiyalashda asosiy metodologik talab va tamoyillar, Integratsiya jarayonini o‘rganishda buyuk pedagoglarning fikrlari batasil bayon etilgan. Shu bilan birga mazkur malakaviy ishda Prezidentimizning 2019 yil 6 sentyabrda “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni asosida 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekistonda boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimida tegishli ta’lim dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlardan iborat professional ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etilishi, uning afzalliklari haqida so‘z boradi.*

Tayanch so‘zlar: *Huquqiy tarbiya, huquqiy targ‘ibot, huquqiy madaniyat.*

“Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart” deb takidlaydi prezidentimiz.

Jamiyatning huquqiy kamoloti mamlakat aholisining huquqiy savodxonlik darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy faol va yuksak madaniyatli insonga xos bo‘lgan fazilatlardan biri huquqiy madaniyatga ega bo‘lishdir.

Umumiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan huquqiy madaniyatning negizini huquqiy ong, huquqiy tafakkur tashkil etadi. Huquqiy ong shaxsning jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi, jamiyat a‘zolarining huquqiy ongi qanchalik yuqori bo‘lsa, huquqiy normalarda belgilangan talablarning bajarilishi ham shunchalik to‘liq va aniq bo‘ladi.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya, boshqacha aytganda huquqiy ma’rifatni takomillashtirish zarur.

Huquqiy ma’rifatning asosiy maqsadi shaxsda huquqiy ongni shakllantirish, ya’ni huquqiy normalarning mazmun-mohiyatini bilish, ularga hurmatni va ixtiyoriy, ongli ravishda rioya qilishni tarbiyalash bo‘lib, u bosqichma-bosqich berilishi lozim.

Shuningdek, huquqiy targ‘ibot ishlari va huquqiy tarbiya jarayonini, huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya tushunchalarini nazariy yoritib borish, hamda

- Yoshlarni kelajagida huquqiy bilimlarni oshirish, jinoyatchilikni oldini olish maqsadida ularni ongida milliy g‘oyani chuqurroq singdirish;

- Huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasida targ'ibot ishlarining mazmunini o'rnini belgilash va huquqiy ta'lim bilan birgalikda huquqiy tarbiyani hamohang tarzda uyg'unlashtirib borish;

- Huquqiy ta'limda turli xildagi pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda ulardan foydalanishda metodik yondashish lozim.

Bu mavzuning ob'yekti o'quvchi-yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati tashkil etsa, mavzuning predmetini O'zbekiston Respublikasi Prezident farmoni, Oliy Majlis Qonunlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, mavzuga oid qonun osti hujjatlari va manbalar hisoblanadi. Huquqiy targ'ibot tushunchasi va uning pedagogik asoslari.

Jamiyat hayotining olg'a qarab rivojlanishida huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turish yo'li bilan unga uyushqoqlik va tartib kiritadi. Huquqning qoidaga solish ta'siri o'ta ko'p qirralidir. Ya'ni u, bir tomondan, mavjud ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlasa va barqarorlashtirsa, ikkinchi tomondan, hayotda endi tug'ilib kelayotgan yangi munosabatlarning rivojiga rag'batlantiruvchi ta'sir qiladi. Ijtimoiy hayot rivojiga to'sqinlik qiluvchi, jamiyatning olg'a borishiga halaqit beruvchi, Ya'ni jamiyat munosabatlari uchun noxush bo'lgan hodisalarning oldini olishda ham huquqning vazifasi kam emas.

Huquq - ozodlik normasini belgilab yoki man etib, majburiyat yuklab va aniqlab, odamlarni aniq rivojlanish iziga solib, ularning fe'l-atvoriga faol ta'sir ko'rsatadi. Huquqning tartibga solish ta'siri, uning odam ongiga ta'sirida yuzaga chiqadi. Huquqiy talablar ongda aks etib, shaxs tomonidan anglab yetiladi, tushuniladi va o'zlashtiriladi, insonning huquqqa munosabatini belgilovchi taassurot va ishonchning murakkab bilimlar birikmasiga aylanadi.

Huquq, ijtimoiy hodisa sifatida, ongdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. U, haqiqiy voqelikning boshqa hamma hodisalari kabi, jamiyat ongada aks etib, nafaqat uning in'ikosiga, balki bilish quroli yoki usuliga aylanadi. Ushbu murakkab ruhiy sohada kechadigan ichki fikrlash jarayoni huquqiy haqiqatning ongdagi aksini tushunib etish va huquq haqidagi bilimlarni shakllantirish bilan bog'langan. Huquq va ong o'rtasida vujudga keladigan uzilmas bogliqlikni ko'zda tutib, avvalo huquqiy ong tushunchasini aniqlab olish lozim.

Huquqiy ong ijtimoiy ongning bir shaqlidir. Demak, u yagona shakl emas. Hayotning sohalari g'oyatda xilma-xil va ularning har biri jamiyat ongida diniy, siyosiy, huquqiy, axloqiy va boshqa aniq shakllarda yuz beradi. O'rganadigan sohasining o'ziga xosligidan qat'iy nazar, ijtimoiy ongning har bir shakli boshqa shakllar bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Goho, ijtimoiy ongning har xil shakllari o'rtasidagi o'zaro singib borish tarzi muayyan qiyinchiliklar tug'diradiki, natijada ularni ajratish oson bo'lmay qoladi. Hamma biladigan - «O'ldirma!», «O'g'irlama!» kabi diniy aqidalar o'zining yuqori axloqiy talabi bilan ajralib turadi. Ammo shu talablarning o'zi ijtimoiy ongning axloq kabi shaqlida ham ko'rinadi. Huquqda ko'zda tutilgan o'g'irlik, jamoat mulkini talon-toroj qilish yoki odam o'ldirish uchun jinoiy-huquqiy javobgarlik o'zining tabiati bilan o'sha axloqiy talabning g'aydalanishi yoki timsoli emasmi? Yaxshilik va yomonlik hodisalarini tushunish, ko'rdingizki, jamiyat ongining har xil shakl va darajalarida va shunday dialektik o'zaro